

BUGUNGI KUNDA QASHQADARYO VILOYATIDA TOG' TURIZMINING AHAMIYATI.

Shahrisabz Davlat pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi

2-bosqich talabasi **Xolmurodova Dinora**

Annotatsiya: Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri - bu turizmdir. Shu sababli ham turizim soxasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida tog' turizmi hamda uning ahamiyati to'g'risida chuqur mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, tog' turizmi, Qashqadaryo, tog'li-rekreatsion hududlar, «Shahrisabz» va «Maydanak baland tog'» turistik markazlari, Prezident, tog', qishloq.

Abstract: Currently, one of the promising sectors that brings high income to the national economy is tourism. Therefore, great attention is paid to the tourism sector. This article provides in-depth reflections on mountain tourism in the Kashkadarya region and its importance.

Keywords: National economy, mountain tourism, Kashkadarya, mountainous recreational areas, "Shahrisabz" and "Maydanak baland tog" tourist centers, President, mountain, village.

Аннотация: В настоящее время одной из перспективных отраслей, приносящей высокий доход национальной экономике, является туризм. Вот почему так много внимания уделяется сектору туризма. В статье даются глубокие размышления о горном туризме и его значении в Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Экономика страны, горный туризм, Кашкадарья, горные рекреационные зоны, туристические базы «Шахрисабз» и «Майданак баланд тоғ», Президент, гора, село.

Kirish.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati — O‘zbekiston Respublikasidagi tarixiy obidalar hamda rekreatsion resurslar imkoniyatlariga ega bo‘lgan hudud, respublikaning janubiy hududida joylashgan.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. [Qashqadaryo viloyati](#) 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan. Viloyat chegarasining umumiy uzunligi 795 kmni tashkil etadi, shundan 405 km tog‘lar orqali qolgan 390 km esa tekislik hududlaridan o‘tadi. Qashqadaryo viloyati shimoldan janubga 195 km masofada, g‘arbdan sharqga esa 293 km masofaga cho‘zilgan. Viloyat Qashqadaryo tabiiy geografik okrugida joylashgan bo‘lib, okrug Kitob-Shahrisabz botig‘i, [Hisor tog‘lari](#) va [Zarafshon tog‘ tizmasini](#) hamda Qarshi dashtini o‘z ichiga oladi. Qashqadaryo viloyati geografik kenglik jihatdan [Turkiya](#), [Gretsiya](#), [Italiya](#), [Ispaniya](#) va [AQSh](#) mamlakatlarining o‘rta qismlari bilan bir xil geografik kenglikda joylashgan. Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqi hamda janubi sharqiy qismlari tog‘lar bilan o‘ralgan. Qashqadaryo viloyati maydoni 28,6 ming km kvadratni tashkil etadi va O‘zbekiston hududining 6,4% ni tashkil etadi. Aholi soni 2022-yil 1-yanvar holatida 3408,3 ming kishi, shahar aholisi 1460,0 ming kishi, qishloq aholisi esa 1948,3 ming kishini tashkil etadi.

Qashqadaryoda turizmning rivojlanishi: Qashqadaryo viloyatida Respublikadagi jami tarixiy obidalarining 17,76% joylashgan. Qashqadaryo viloyatda bugungi kunda 1 ming 468 madaniy meros obyekti ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 1 ming 189 tasi [arxeologiya](#), 208 tasi [arxitektura](#), 43 ta monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. „O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari“ to‘g‘risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi Pf-6165 son Farmoning 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida turizmni

rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash maqsadida Qashqadaryo viloyati hokimligi byudjetdan tashqari 200 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan.

Shifobaxsh buloqlar asosan viloyatning tog‘ oldi va tog‘i qismlarida ko‘p uchraydi. Hzoirda viloyat hududida 20 ga yaqin shifobaxsh buloqlar mavjud. Ulardan Zevardi, Maymanoq, Qarliq, O‘rta buloq, Muborak, Xo‘jaxayron buloqlari xalq xo‘jaligida muhim sanaladi. Buloqlarda gidrokarbanat natriy, brom, yod, brom oksidi, sulfat natriy, vododrod sulfit kabi kimyoviy elementlar mavjud.

Miroqi shaharchasi: Shahrisabz tumanidagi kurort, rekreatsion resurslarga ega bo‘lgan shaharcha hisoblanadi. Miroqi shaharchasi dengiz sathidan 980 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, 1986-yilda shaharcha maqomini olgan. Shaharcha turizm va rekreatsiya uchun xizmat ko‘rsatish negizida paydo bo‘lgan shaharcha hisoblanadi. Shaharcha hududida sanatoriya, mahalliy ishlab chiqarish, savdo majmualari, sanoat korxonalari va oromgohlar mavjud. Respublika bo‘ylab kelgan mahalliy sayyohlarga asosan apreldan sentyabr oyigacha xizmat ko‘rsatadi.

Ko‘l qishlog‘i: Shahrsabz tumanining baland tog‘ mintaqa hududlarida joylashgan qishloq sanaladi. Ko‘l qishlog‘iga olib boruvchi yo‘l juda uzoq hisoblanadi va yo‘l asosan qoyatoshlar, chuqur daralar oralab o‘tiladi. Ko‘l qishlog‘ida 1500 ga yaqin aholi iste‘qomat qiladi. Aholining asosiy turmush faoliyati esa mahalliy dehqonchilik, chorvachilik hamda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish hisoblanadi. Ko‘l qishlog‘iga yog‘ingarchilik miqdori yuqori, qish juda sovuq va yoz nisbatan salqin bo‘ladi. Yil davomida faqatgina 4 oy davomida quyosh nur sochib turadi qolgan vaqtlarda esa yomg‘ir va qor yog‘adi. Qishloqqa olib boruvchi yo‘llar asosan bir tamonlama harakatlanuvchi yo‘llar sanaladi. Qishloq hududida etnografiya va ekoturizm obyektlari mavjud.

G‘ilon qishlog‘i: Hisor tog‘ etaklarida joylashgan qishloq hisoblanadi. Mahalliy aholi chorvachilik, dehqonchilik bilan shug‘ullandi. Qishloq hududida bir qancha ekoturizm obyektlari, rekreatsion shifobaxsh suvlari mavjud. Qishloqda 7000 ga yaqin aholi iste‘qomat qiladi. Qishloq yo‘llari tosh qoyalar oralab borilganligi sabab tez-tez sel natijasida yo‘llar yopilib qoladi. Qishloq shuningdek sayyohlarga xizmat ko‘rsatish

faoliyati yo'lga qo'yilgan, hududda 6 ta oilaviy mexmonxonalar mavjud. Qishloqda qish nisbatan uzoq davom etishi sabab sayyohlik mavsumiylik xususiyatiga ega.

O'zbekiston prezidentining «Qashqadaryo viloyatining tog'li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori qabul qilindi.

Xorijiy davlatlarning malakali ekspertlari va yetakchi kompaniyalari ishtirokida Shahrisabz tumanining «Miraki», «Amir Temur», «Uloch» va «Polmon» mahalla fuqarolar yig'inlari hududidagi umumiy maydoni 240 gektar bo'lgan yer uchastkasida zamonaviy xizmat ko'rsatish majmualari va turizm infratuzilmasi obektlari qurilishi bo'yicha reja ishlab chiqariladi.

Qarorda, shuningdek, Qamashi tumanining «Katta o'ra» mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi umumiy maydoni 58,6 gektar bo'lgan yer uchastkasida mehmonxona, sog'lomlashtirish sanatoriysi, umumiy ovqatlanish obektlari, dor yo'llari, tog'-chang'i kompleksi va boshqa turistik ahamiyatga ega obektlar barpo etishni nazarda tutuvchi master loyihasi ishlab chiqilishi qayd etilgan.

Bundan tashqari, Shahrisabz tumani hududidagi umumiy maydoni 240 gektar bo'lgan yer uchastkasida «Shahrisabz» turistik markazi, Qamashi tumani hududidagi umumiy maydoni 58,6 gektar bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasida «Maydanak baland tog'» turistik markazi tashkil etiladi.

Davlat rahbari tomonidan imzolangan qarorga binoan, «Shahrisabz» va «Maydanak baland tog'» turistik markazlarini rivojlantirish va boshqarish uchun davlat muassasasi shaklida Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti tashkil etiladi. Hujjat bilan «Shahrisabz» va «Maydanak baland tog'» turistik markazi hududi chegaralari ham tasdiqlandi.

Shahrisabz tumanining «Miraki», «Amir Temur», «Uloch» va «Polmon» mahalla fuqarolar yig'inlari hamda Qamashi tumanining «Katta o'ra» mahalla fuqarolar yig'ini hududlarida xususiy investitsiyalarni jalb qilgan holda 2024-2025 yillarda qo'shimcha mehmonxonalar, mehmon uylari, xizmat ko'rsatish majmualari va dam olish

maskanlarini qurish maqsadida bo'sh yer uchastkalarini 10 yil muddatda teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan aukcion savdolariga chiqariladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki Qashqadaryo viloyatida hududdagi dam olish maskanlari tog' oldi va tog'li hududlarda joylashgan. Jumladan, Miroqi shaharchasi, Kitob Milliy Tabiat qo'riqxonasi, Hisor davlat qo'riqxonasi, Ko'l, Varganza, Xazora, G'ilon qishloqlarida salomatlikni tiklash uchun qulay iqlimiy sharoitlar mavjud. Shuningdek bu yerlarning havosi tozaligi va shifobaxshligi tufayli ham turizm sohasini jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shunindek Prezidentining «Qashqadaryo viloyatining tog'li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori qabul qilindi. Ushbu qaror ham Qashqadaryoda turizm sohasini rivojlantirishga yuksak e'tibor qaratilayotganini tastig'idir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 28.01.2022 yildagi PFf-60-son .www.lex.uz
2. "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi Pf-6165 son Farmoning 9- band www.lex.uz
3. Encyclopedia of Tourism Moren T. Stone & Lesego S. Stone First Online: 01 January 2015
4. Qashqadaryo viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi 2022-yil hisoboti. qashqadaryo.uz/oz